

O'YINNING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGIK JARAYONIDAGI O'RNI

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi

Qo'qon universiteti "Ta'lism" kafedrasi o'qituvchisi

To'xtasinova Gulshanoy Xaydarali qizi

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 1.22-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'yining maktabgacha ta'lism tashkilotlaridagi pedagogik jarayondagi o'rni va uning bolalar rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Maktabgacha ta'linda o'yin nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki bolalarning aqliy, emotsiional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladigan samarali pedagogik vosita sifatida qaraladi. Maqolada o'yining bolalar uchun o'r ganish jarayonini qiziqarli va samarali tarzda tashkil etishda qanday ahamiyatga ega ekan ko'rsatilgan. O'yin yordamida bolalar yangi bilimlarni o'r ganadilar, ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradilar va jismoniy rivojlanishni ta'minlaydilar. Shu bilan birga, o'yin bolalarning his-tuyg'ularini ifodalash va boshqarish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham oshiradi. Maqolada o'yining pedagogik jarayonda bolalar uchun qanday rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'yin, shaxs, rivojlanish, tarbiyalanuvchi, pedagog, nutq, mehnat, kompitensiya.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda, bu sohada bir qator qonun hujjatlari va prezident farmonlari qabul qilingan. Masalan, "Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5108-sonli Qaror va "2022–2026-yillarda maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmonda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda o'yin faoliyatining ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu hujjatlarga ko'ra, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarning yosh xususiyatlariga mos innovatsion pedagogik texnologiyalar, shu jumladan o'yin usullaridan keng foydalanish belgilab berilgan.

Zamonaviy pedagogikada o'yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyojlarini qondirish, ularga yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam berish uchun qo'llaniladigan eng samarali usullardan biri sifatida qaraladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida o'yinlar tashkil etishda yosh xususiyatlari, individual qiziqishlar va rivojlanish darajasi hisobga olinadi, shu bilan birga bolalarga erkin ijodiy muhit yaratishga alohida e'tibor beriladi.

Jamiyatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limdag'i yangilanishni, Respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning assosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanganligini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya berish jarayonida bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, ethnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

Ushbu maqolada o'yinning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik ahamiyati, o'yinlarning turlari, ularning bolalar rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, o'yinlarni tashkil etishning zamonaviy usullari haqida to'xtalib o'tiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tashkil etilgan o'yinlar bolalarning bilim olish qiziqishini oshiradi, ularga ijodiy yechimlarni topishga yordam beradi va kelajakdagi maktab ta'limi uchun asos yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, AS.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - u insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergen edi.

S.A. Shmakovning ta'kidlashicha, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda, yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;

- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;

- emotsiyonal ta'sir - bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;

- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.¹⁰

P.F.Lestgaft "Bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar," - deydi¹¹. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Sog'lom avlodni kamolga yetkazish va tarbiyalashning turli yo'l-yo'riqlari, o'ziga xos usullari mavjud. Ayniqsa bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, badantarbiyasi va sport bilan shug'ullanish, turli milliy harakatli o'yinlarni o'rgatish ota-onasiga, jismoniy tarbiya yo'qriqchilari va murabbiylarning oldida muhim vazifa hisoblanadi. Bola tarbiyasidagi bu jihatlar davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Prezidentimiz bu masalani davr talab darajasida xal qilishga alohida e'tibor berib, o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya, turizm, sportning boshqa milliy turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish, ayniqsa, milliy sport o'yinlarini boyitish va shular asosida yoshlarimiz o'rtaida keng tashviqot olib borishni kun tartibidagi dolzarb masalalar sifatida e'tirof etib o'tdilar.

Darhaqiqat, milliy harakatli o'yinlar, sport turlari ham xalq qadriyatlariga daxldor bo'lib, ularni yig'ish, boyitish va bolalarga taqdim etishni sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lidi muhim va zaruriy vazifalardan biridir. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i PQ-4312-son Qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydag'i 418-sonli Qarori, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 13-martdag'i 391-son Qarori, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinchoqlar, jixozlar va boshqa texnik vositalar bilan jixozlash me'yorlarinining tasdiqlash, to'g'risidagi 2018-yil 7-mart 7-sonli qarorlar qabul qilingan. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taklid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o'zgacharoq faxmlaydi va kuzatadi. O'yindagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo'ladi. Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi. Shuningdek, o'yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega hisoblanadi. O'yin

¹⁰ Sh.S. Shoyimova, M.K. Yoshimova, Sh.R. Mirzayeva, M.M. Qo'ziboyeva. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. "Ijodprint", Toshkent 2020. 310 bet.

¹¹ Ш.Шодмонова. Мактабгача таълим педагогикаси. Т., «Fan va texnologiya», 2008, 122-bet

maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o‘rin egallab, u eng avvalo, o‘yin orqali ta’lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasvvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqt ni mashg‘ulot yoki kun tartibidagi boshqa tad birlami cho‘zib yuborish orqali egallah mumkin emas. Maktabgacha ta’lim muassasasi tayanch dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin ham kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg‘ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o‘yinlardan foydalaniлади. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli, didaktik o‘yinlar kiradi. O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagogika fani o‘yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko‘nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me’yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O‘yinda bolaning o‘z tengqurlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. O‘yin bolalarga ta’lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O‘yinda boladagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga anqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g‘ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-Vatanga, o‘z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy-hissiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi.

O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohish-istiklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadilar.

NATIJALAR

Sensor tarbiya berish usullari maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishning turli jahbalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar bolaning sezgirlik va bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi. Sensor tarbiya qo‘llanilganida, bolalar o‘z atrof-muhitini yanada yaxshiroq anglashadi va uni bilish qobiliyatlari rivojlanadi. Buning natijasida bolaning intellektual, emotsiyal va jismoniy rivojlanishi ham yaxshilanadi.

Sensor tarbiya uchun didaktik o‘yinlar bolaning sezgilarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biz natijaga to‘g‘ri erishishimiz uchun sensomotorik o‘yinlardan foydalanamiz. Masalan,

“Ranglarni top” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli ranglardagi kartochkalar yoki o‘yinchoqlarni topishi va nomlashi.

Qanday o‘ynash: Tarbiyachi yoki ota-onada rangli obyektlarni yerda joylashtiradi va boladan shu rangni topishni so‘raydi. Bu o‘yin ranglarni farqlashni rivojlanadiradi.

“Tovushni eshit” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli tovushlarni farqlashlari va to‘g‘ri javobni berishlari kerak.

Qanday o‘ynash: Tarbiyachi yoki ota-onada bolalarga hayvon tovushlari (masalan, mushukning miyovlashini, itning vovullashini), musiqa asboblarining tovushlarini yoki boshqa ovozlarni eshittiradi. Bola shu tovushni qanday tovush ekanligini aytib berishi kerak.

“Shakllarni ajrat” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli shakllarni tanib, ularni ajratib ko‘rsatishlari kerak.

Qanday o‘ynash: O‘yinda turli geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, doira va boshqalar) kartochkalari ishlatiladi. Bola shakllarni topib, nomlarini aytib, ularni to‘g‘ri joylashtirishi kerak.

“Hidni tanish” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli xil hidrlarni tanib, ularni nomlashlari kerak.

Qanday o‘ynash: Tarbiyachi yoki ota-onada bolalarga turli xil hidi bor obyektlarni (mevalar, gullar, zira va boshqa oshxona mahsulotlari) hidlatadi. Bola hidni ta’riflab, uning nima ekanligini aytishi kerak.

“Tegishli materialni tanla” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli materiallarning yuzasini tanib, farqlashlari kerak.

Qanday o‘ynash: O‘yin uchun yumshoq, qattiq, silliq, to‘qimalarga ega materiallar ishlatiladi (masalan, paxta, yog‘och, tosh). Bola shu materiallarning yuzasini qo‘li bilan his qilib, ularning farqini tushuntirishi kerak.

“Ta’nni bil” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar turli ta’mlarni sezish va farqlashlari kerak.

Qanday o‘ynash: Bolalar turli xil mevalarning yoki boshqa taomlarning ta’mini tanishadi (masalan, shirin, achchiq). Bola ta’nni aytib berishi va uni qanday tasvirlashini tushuntirishi kerak.

“Xarita bo‘yicha sayr” o‘yini:

O‘yin maqsadi: Bolalar tabiatdagi obyektlarni va ularning xarakteristikasini o‘rganishlari kerak.

Qanday o‘ynash: Tarbiyachi yoki ota-onalardan bolalar bilan tabiatda sayr qilib, turli xil tabiat obyektlarini (daraxtlar, gullar, hayvonlar) ko‘rsatadi va ular haqida gapiradi. Bolalar ushbu obyektlarning nomlarini va xususiyatlarini o‘rganadilar.

Bu o‘yinlar bolalar uchun qiziqarli va foydali bo‘lib, sezgi organlarini faol ravishda ishlatalishga yordam beradi, ularni yanada rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘yin bu kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, ularga turli xil harakatlarni obyektlar, usullar va aloqa vositalari bilan o‘rgatish uchun foydalaniladigan bolalar faoliyati turlaridan biridir. O‘yin maktabgacha ta’lim tizimining yuragi va ruhi bo‘lib, yosh tarbiyanuvchilarning ongi, qalbi va tanasini chuqur va ta’sirli shakllarda shakllantiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yinni bolalar faoliyatining asosiy turi sifatida qabul qilib, tarbiyachilar o‘yin orqali bolalarning o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyilligini hurmat qiladigan jonli va tarbiyali muhit yaratadilar. O‘yin orqali bolalar kashfiyot, ijodkorlik va o‘sish sayohatiga ega bo‘ladilar, bu ularning o‘rganishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytiradi, ularning turli sohalarda rivojlanishiga yordam beradi va yorqin va istiqbolli kelajak uchun zamin yaratadi. O‘yin maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagogik jarayonning ajralmas qismidir va bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘yin, nafaqat bolalar uchun ko‘ngilochar faoliyat sifatida, balki ularning kognitiv, ijtimoiy, emotsiyonal va jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi kuchli pedagogik vositadir. Pedagogik jarayonda o‘yin orqali bolalar aqliy qobiliyatlarini oshiradilar, mantiqiy fikrlashni o‘rganadilar, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlanadir, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘yin jarayonida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqarish, shaxsiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli, o‘yin maktabgacha ta’limning asosiy metodlaridan biri sifatida, bolalarning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladigan, ularga ta’lim olish jarayonini qiziqarli va samarali tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Pedagoglar o‘yin orqali bolalar bilan samarali ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini

tashkil etishlari zarur. Bu, o‘z navbatida, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli va faol shaxslar bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Darslik. Tafakkur bo‘stoni. Toshkent 2013
2. Maftunakhon, J. (2025). Model of development of professional transversal competences of future educators. International Journal of Pedagogics, 5(02), 60-63.
3. Maftunaxon, J., & Maloxatxon, S. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berish usullari. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 3(2), 63-69.
4. Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi, & Sultonova Ruxshonaxon Shukurjon qizi. (2025). Maktabgacha ta’limda steam texnologiyasini qo‘llashning pedagogik jarayon samaradorligiga ta’siri. Tadqiqotlar, 57(1), 8-13
5. Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi. (2025). Bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Innovations in technology and science education, 4(30), 57–62. Retrieved from <https://scienceresearch.uz/index.php/ITSE/article/view/433>
6. M.M. Jaloliddinova. Current Status Of Pedagogical Conditions For Developing Professional Transversal Competences Of Future Educators. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 4 Issue 2 February 2025 Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. 121-125
7. Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni matab ta’limiga tayyorlashning pedagogik asoslari” Ilmiy maqola. “Sciene and innovation” International scientific journal. 2022. № 2 ISSN: 2181-3337
8. F.O‘rinova, M.Jaloliddinova Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini matabga tayyorlash tamoyillari „Academic excellence on science and Research” Respublika jurnali ISSN: 2181-2608